



BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH

Baxramova Aziza Djamshid Qizi

Telefon: +99890 045 90 99

E-pochta: azizabaxramova2810@gmail.com

O'zDJTU Ingliz tili №2 fakulteti talabasi

Yuldasheva Salomat Farxadovna

Ilmiy rahbar:

Annotatsiya: *Maqolada bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, ularda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, bolalarning sog'lig'ini ta'minlash, bilim olish ehtiyojini rivojlantirish va bunda qo'llanadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqidagi ma'lumotlar ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, maktabga tayyorlash, maqsad, rivojlanish, vazifa.*

Аннотация: *В статье отражены вопросы подготовки детей к школьному обучению, формирование духа национального патриотизма, обеспечение охраны здоровья детей, формирование потребности в знаниях и применяемые современные педагогические технологии.*

Ключевые слова: *образование, подготовка к школе, цель, развитие, задание.*

Abstract: *This article shows information about preparing children for school education, forming national patriotism in them, ensuring children's health, developing the need for education, and modern pedagogical technologies used in this.*

Key words: *education, preparation for school, goal, development, task.*

Biz bilamizki, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich turi hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonun"i va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida tashkil etiladi.

Bolalar maktab ta'limiga asosan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yoki uyda tayyorlanadilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning rivojlanishiga qaratilgan tayyorgarlik 3 bosqichda amalga oshiriladi.

1. Bolalarni nutqini rivojlantirish.

2. Jismonan rivojlantirish.

3. Ma'nan rivojlantirish.

Mutaxassislarning fikricha, "Maktabga tayyorgarlik" tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning bir nechta usullarini o'z ichiga oladi:

-jismoniy

-shaxsiy(ruhiy)

-aqliy

-maxsus tayyorgarlik.



Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog'lomligini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, uning shaxsiy tayyorgarligi esa atrof-muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o'simliklar dunyosiga, tabiiy hodisalarga munosabati, shaxsiy madaniyatning shakllanganligini ko'rsatib berishni nazarda tutadi.

Aqliy tayyorgarlik bolaning obrazli va mantiqiy fikrlashi, bilimga qiziqishi, mustaqilligi, o'zini-o'zi nazorat qilishi hamda o'quv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab qolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishini o'z ichiga oladi. Bu esa bolalarni kattalar yordamisiz o'z fikrlarini ifodalay olish, hikoya qilish, tasavvurini izohlay olish qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Bola maktabga chiqishdan oldin maktab nima ekanligi, undagi boshlang'ich fanlar haqidagi tushunchalarga ega bo'lishi va uning oldiga qo'yiladigan vazifalarga tayyor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiyani pedagog-tarbiyachi amalga oshiradi. Ta'lim-tarbiya ishini rejalashtirish pedagogning bolalar jamoasi va ota-onalar hamkorligiga, ular tomonidan birgalikdagi faoliyat doirasidagi maqsad va vazifalarni anglash, maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar hayotini qiziqarli va foydali bo'lishini ta'minlash istagiga asoslangan. U pedagogik jarayonda asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun tarbiyachi o'z sohasini chuqur bilishi, har xil metodik vositalarni puxta egallagan, pedagogik psixologik tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga mutaxassislik bo'yicha fanlarni hamda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturini, maktabgacha tarbiya pedagogikasi, «Ilk qadam» davlat o'quv dasturini, Davlat ta'lim standartlarini, "Bolalarni maktabga tayyorlash" fani va boshqalarni puxta egallagan bo'lishi kerak.

Umuman olganda, bolalarni maktabga tayyorlash bu ularning jamiyatimizga foyda keltiradigan buyuk shaxs sifatida rivojlantirish uchun asosiy va eng qisqa yo'ldir. Va bu yo'lda qilingan harakatlarning hech biri behuda ketmasligida ota-onalarning roli katta. Inson tafakkurini rivojlantirish, inson shaxsini shakllantirish va jamiyatimizga ongli avlodni yetkazib berishda muhim rol o'ynaydigan maktabgacha ta'lim- tarbiya ularning o'z maqsadlariga erishish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Davlat ta'lim standartlari.
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2018.
3. Asqarova D.Q. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi. - Toshkent, 2020
4. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.
5. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim- tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari. Tuzuvchilar Rasulova M, Abdurahmonova X. va boshqalar. – Toshkent, 2000.
6. <https://mpe.uz/post-detail/posts/news/2056>